



Toshkent davlat
sharqshunoslik universiteti

XXI ASR: FAN VA TA'LIM MASALALARI

ilmiy elektron jurnali

ISSN: 2181-9874



EDUCATION

2025

MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI: MOHIYATI VA ILMIY ASOSLARI

Nigora Uktam qizi Maxmasobirova

*Katta o‘qituvchi,
Iqtisod fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
“Iqtisodiyot va menejment” kafedrası
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*

Javoxir Nuriddin o‘g‘li Saydaliyev

*Bosh mutaxassis
“Orient finans” XATB*

Annotatsiya. Maqolada MHXSning mazmuni va iqtisodiy tizimdagi ahamiyati o‘rganilgan bo‘lib, standartlarning ilmiy asoslari hamda ularning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari ilmiy izlanishlar evolyutsiyasi doirasida tahlil qilingan. Shuningdek, MHXSning global amaliyotda qo‘llanishi yoritilgan bo‘lib, tadqiqot natijalari MHXS tizimining zamonaviy iqtisodiy boshqaruvdagi dolzarbligini asoslaydi.

Kalit so‘zlar: MHXS, moliyaviy hisobot, buxgalteriya hisobi, xalqaro standartlar, huquqiy asos, shaffoflik, taqqoslash, investitsion muhit.

INTERNATIONAL FINANCIAL REPORTING STANDARDS: ESSENCE AND SCIENTIFIC BASIS

Nigora Uktam kizi Makhmosobirova

*Senior Lecturer,
Doctor of Philosophy in Economics (PhD)
Department of “Economics and Management”
Tashkent State University of Oriental Studies*

Javokhir Nuriddin oglu Saydaliyev

*Chief Specialist
“Orient Finance” JSCB*

Annotation: The article examines the essence of IFRS and its significance within the economic system, analyzing the scientific foundations of the standards as well as their formation and development stages within the evolution of scientific research. In addition, the application of IFRS in global practice is highlighted, and the research findings substantiate the relevance of the IFRS system in modern economic management.

Keywords: IFRS, financial reporting, accounting, international standards, legal framework, transparency, comparability, investment environment.

МЕЖДУНАРОДНЫЕ СТАНДАРТЫ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ: СУТЬ И НАУЧНАЯ ОСНОВА

Низора Уктам кизи Махмособирова

Старший преподаватель, доктор экономических наук (PhD)

Кафедра «Экономика и менеджмент»

Ташкентский государственный университет востоковедения

Джавохир Нуриддин оглы Сайдалиев

Главный специалист АО «Ориент Финанс»

Аннотация: В статье рассматривается сущность МСФО и их значение в экономической системе, анализируются научные основы стандартов, а также этапы их формирования и развития в рамках эволюции научных исследований. Кроме того, освещается применение МСФО в мировой практике, а результаты исследования подтверждают актуальность системы МСФО в современном экономическом управлении.

Ключевые слова: МСФО, финансовая отчетность, бухгалтерский учет, международные стандарты, правовая база, прозрачность, сопоставимость, инвестиционная среда.

KIRISH

Zamonaviy global iqtisodiyotda moliyaviy axborotning aniqligi, shaffofligi va taqqoslanishi muhim ahamiyat kasb etib, moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari (MHXS) har qanday mamlakat iqtisodiy taraqqiyoti uchun muhim vositaga aylanmoqda. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari dunyo miqyosida moliyaviy hisobot standartlarini uyg'unlashtirish, muvofiqlashtirish va takomillashtirish imkonini yaratib, ayniqsa investitsiyalar uchun ishonchli axborot manbai sifatida investorlarning qaror qabul qilish jarayonida xatarlarni baholash va imkoniyatlarni aniqlashda muhim rol o'ynaydi.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari moliyaviy hisobot taqdim etishdagi tafovut va farqlarni kamaytirish, axborotning sifatini oshirish hamda korxonalar moliyaviy faoliyati natijalarini ham mahalliy, ham xalqaro darajada samaraliroq baholash va solishtirish imkonini beradi. Umuman olganda, MHXS iqtisodiyotni raqamlashtirishda (ma'lumotlar standartlashuvi, shaffoflik va ishonchlilik, audit va monitoringning avtomatlashtirilishi orqali), global iqtisodiyotga integratsiyalashuvda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ham, Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari jamg'armasi (MHXS Jamg'armasi) va

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo'yicha Kengash tomonidan ishlab chiqiladigan mazkur standartlar dunyoning 140 dan ortiq yurisdiksiyalarida keng qo'llanilib (IFRS Foundation, 2025), O'zbekistonda ham mazkur standartlar bosqichma-bosqich joriy etilmoqda.

O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab milliy hisob tizimini yaratish va takomillashtirish, keyinchalik moliyaviy hisobotning xalqaro standartlaridan foydalanish borasida qator qadamlar tashlangan bo'lsa-da, mazkur standartlardan keng foydalanish 2017-yildan boshlab yangi bosqichga chiqdi. Bu jarayonda so'nggi yillarda qabul qilingan bir qator huquqiy hujjatlar, xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-4611-son Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-martdagi “2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida”gi PF-5953-sonli Farmoni (yirik xo'jalik yurituvchi subyektlarda MHXSni bosqichma-bosqich joriy etish), O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-avgustdagi 507-son “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi Qarori hamda O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2022-yil 9-dekabrda “O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llash uchun moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish to'g'risida”gi 3400-sonli buyrug'i muhim rol o'ynadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-sentabr kuni qabul qilingan va dekabr oyidan kuchga kiruvchi “Moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-282-son Qarori MHXSni amaliyotga joriy etishni takomillashtirishning yangi yo'nalishlarini belgilab berdi.


Mamlakatimizda iqtisodiyotni bozor mexanizmlari asosida rivojlantirish, xorijiy investitsiyalar oqimini kuchaytirish va moliyaviy axborotning ochiqligi hamda ishonchliligini ta'minlash maqsadida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mazkur maqolada MHXS oid ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish maqsadida ularning mohiyati, zaruriyati va ilmiy asoslari tadqiq etilgandir.

ASOSIY QISM

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari dunyo miqyosida moliyaviy hisobot standartlarini uyg'unlashtirish, muvofiqlashtirish va takomillashtirish uchun qo'llanilib, standartlar axborotning sifatini oshirish hamda korxonalar moliyaviy faoliyati natijalarini ham mahalliy, ham xalqaro darajada samaraliroq baholash va solishtirish uchun ishlatiladi.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (IFRS — International Financial Reporting Standards) – bu butun dunyo bo'ylab moliyaviy hisobotlarni

tayyorlashda yagona yondashuvni ta’minlash maqsadida ishlab chiqilgan standartlar to’plamidir. Ular kompaniyalar moliyaviy holatini aniq va taqqoslanadigan tarzda aks ettirishi uchun xizmat qiladi (IFRS Foundation, 2025). MHXS ishlab chiqish bilan dastavval IASC (International Accounting Standards Committee) – Xalqaro buxgalteriya hisobi standartlari qo‘mitasi shug‘ullangan bo‘lsa (1973–2001-yillar), hozirda MHXSni ishlab chiqish va nashr etish bilan International Accounting Standards Board (IASB) – Xalqaro buxgalteriya hisobi standartlari kengashi shug‘ullanadi (ICAEW, 2025).



1-rasm. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari tizimi

Bugungi kunda xalqaro moliyaviy hisobot standartlari tizimi ikki asosiy toifadan iborat (IFRS Foundation, 2025):

1. **IFRS** (International Financial Reporting Standards — Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari);
2. **IAS** (International Accounting Standards — Xalqaro buxgalteriya standartlari);
3. MHXS bo'yicha Xalqaro sharhlar qo'mitasi sharhlari (**IFRIC Interpretations**);
4. MHXS bo'yicha Sharhlar bo'yicha doimiy qo'mitaning sharhlari (**SIC Interpretations**).

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari, ya'ni IFRS, hozirgi vaqtda jami 18 ta standartdan iborat bo'lib, ular IFRS 1 dan IFRS 19 gacha raqamlangan. IAS standartlari esa, avvaliga 41 ta bo'lgan bo'lsa, keyinchalik ularning bir qismi bekor qilinishi yoki IFRS standartlari bilan almashtirilishi natijasida, hozirgi kunda amalda 24 ta IAS standartlari qo'llanib kelinmoqda. Natijada, bugungi kunda xalqaro amaliyotda jami 42 ta asosiy standart amal qiladi (18 ta IFRS va 24 ta IAS) (IFRS

Foundation, 2025) va standartlar doimiy ravishda jahon iqtisodiyotidagi o’zgarishlar, tajribalardan kelib chiqib yangilanib boradi.

1-jadval

MHXSning amaldagi 18 ta standarti mazmuni

Standart nomi	Mazmuni
IFRS 1 – MHXSni birinchi marta qo’llash	IFRSga birinchi marta o’tayotgan tashkilotlar uchun o’tish qoidalarini va talablarini belgilaydi.
IFRS 2 – Aksiyalar asosidagi to’lovlar	Aksiyalar yoki boshqa moliyaviy vositalar asosida amalga oshiriladigan to’lovlarni hisobga olish tartibini belgilaydi.
IFRS 3 – Biznes birlashmalari	Kompaniyalar o’rtasidagi birlashmalarni hisobga olish tartibini belgilaydi, shu jumladan, sotib olingan aktivlar va majburiyatlarni baholash.
IFRS 4 – Sug’urta shartnomalari	Sug’urta shartnomalarini vaqtinchalik hisobga olish qoidalarini belgilaydi.
IFRS 5 – Sotuvga qo’yilgan yoki faoliyatdan to’xtatilgan aktivlar	Sotuvga qo’yilgan aktivlar va faoliyatdan to’xtatilgan operatsiyalarni hisobga olish va taqdim etish tartibini belgilaydi.
IFRS 6 – Foydali qazilmalarni qidirish va baholash	Foydali qazilmalarni qidirish va baholash bilan bog’liq xarajatlarni hisobga olish tartibini belgilaydi.
IFRS 7 – Moliyaviy vositalar: ma’lumotlarni oshkor qilish	Moliyaviy vositalar bilan bog’liq xavflar va ularning boshqaruvi haqida ma’lumotlarni oshkor qilish talablarini belgilaydi.
IFRS 8 – Segmentlar bo’yicha hisobot	Kompaniyaning turli biznes segmentlari bo’yicha moliyaviy ma’lumotlarni taqdim etish tartibini belgilaydi.
IFRS 9 – Moliyaviy vositalar	Moliyaviy aktivlar va majburiyatlarni tasniflash, baholash va hisobga olish qoidalarini belgilaydi
IFRS 10 – Konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotlar	Kompaniyaning sho’ba korxonalari bilan birgalikda konsolidatsiya qilingan moliyaviy hisobotlarni tayyorlash tartibini belgilaydi.
IFRS 11 – Qo’shma faoliyat	Qo’shma faoliyatlar va qo’shma korxonalarini hisobga olish qoidalarini belgilaydi.
IFRS 12 – Boshqa korxonalardagi ulushlar haqida ma’lumotlarni oshkor qilish	Kompaniyaning boshqa korxonalardagi ulushlari haqida ma’lumotlarni oshkor qilish talablarini belgilaydi.
IFRS 13 – Adolatli qiymatni o’lchash	Adolatli qiymatni aniqlash va oshkor qilish qoidalarini belgilaydi.
IFRS 14 – Regulyativ kechiktirilgan hisobga olish	Regulyatorlar tomonidan ruxsat etilgan kechiktirilgan hisobga olish amaliyotlarini vaqtinchalik hisobga olish qoidalarini belgilaydi
IFRS 15 – Mijozlar bilan shartnomalardan tushum	Mijozlar bilan tuzilgan shartnomalardan tushumlarni tan olish va hisobga olish qoidalarini belgilaydi.
IFRS 16 – Ijara shartnomalari	Ijara shartnomalarini hisobga olish tartibini belgilaydi
IFRS 17 – Sug’urta shartnomalari	Sug’urta shartnomalarini hisobga olish va taqdim etish bo’yicha yakuniy qoidalarini belgilaydi.

IFRS 18 - Moliyaviy hisobotlarda taqdim etish va oshkor qilish	Moliyaviy hisobotlarda taqdim etish va oshkor qilish bo'yicha umumiy talablarni belgilaydi (01.01.2027 dan)
IFRS 19 - Jamoatchilikka ochiq bo'lmagan sho'ba korxonalar: ma'lumotlarni oshkor qilish	Boshqa IFRS buxgalteriya standartlaridagi oshkor qilish talablarining o'rniga tashkilot qo'llashi mumkin bo'lgan oshkor qilish talablarini belgilab beradi (01.01.2027 dan).

Manba: <https://www.ifrs.org/issued-standards/list-of-standards/>

MHXSning asosiy maqsadi – moliyaviy hisobotlarni shaffof, ishonchli, taqqoslanadigan va xalqaro darajada tushunarli qilishdan iborat bo‘lib, standartlar kompaniyalar va tashkilotlarning moliyaviy axborotini yuqori sifatda, foydalanuvchilar uchun tushunarli va ishonchli tarzda taqdim etishga xizmat qiladi. Bu esa investorlar, kreditorlar, regulyatorlar hamda boshqa manfaatdor tomonlarga to‘g‘ri va asoslangan qarorlar qabul qilishda yordam beradi. Yuqorida (1-jadval) amaldagi MHXS standartlarining qisqacha mazmuni keltirilgan bo‘lsa, quyida (2-rasm) IASning amaldagi 24 standarti haqida ma’lumotlar keltirilgan (IFRS Foundation, 2025).

Xalqaro buxgalteriya standartlari		
• IAS 2 – Zaxiralar • IAS 7 – Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot • IAS 8 – Moliyaviy hisobotlarni tayyorlash asoslari • IAS 10 – Hisobot davridan keyingi hodisalar • IAS 12 – Daromad solig‘i • IAS 16 – Asosiy vositalar • IAS 19 – Xodimlarga beriladigan nafaqalar • IAS 20 – Davlat grantlarini buxgalteriya hisobi va davlat yordamini oshkor qilish	• IAS 21 – Valyuta kursidagi o‘zgarishlarning ta’siri • IAS 23 – Qarzga xizmat ko‘rsatish xarajatlari • IAS 24 – Bog‘liq tomonlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni oshkor qilish • IAS 26 – Nafaqa ta’minoti rejalari bo‘yicha buxgalteriya hisobi va hisobot • IAS 27 – Alohida moliyaviy hisobotlar • IAS 28 – Assotsiatsiyalashgan va qo‘shma korxonalarga investitsiyalar • IAS 29 – Giperinflyatsion iqtisodiyotlarda moliyaviy hisobot • IAS 32 – Moliyaviy vositalar: taqdim etish	• IAS 33 – Har bir aksiya uchun foyda • IAS 34 – Oraliq moliyaviy hisobot • IAS 36 – Aktivlarning qadrsizlanishi • IAS 37 – Majburiyatlar, shartli majburiyatlar va shartli aktivlar • IAS 38 – Nomoddiy aktivlar • IAS 39 – Moliyaviy vositalar: tan olish va o‘lchash • IAS 40 – Investitsion mulk • IAS 41 – Qishloq xo‘jaligi

2-rasm. Xalqaro buxgalteriya standartlari

MHXSning global iqtisodiyotdagi ahamiyati va zaruriyati haqida gapirganda ta’kidlash lozimki, xalqaro standartlar milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda bir qancha muhim vazifalarni bajaradi va bir nechta yo‘nalishlarda ijobiy ta’sir etadi (3-rasm) (IFRS, IMF va World Bank ma’lumotlari asosida tuzildi):

- **Moliyaviy axborotning raqamli formatga o‘tishini rag‘batlantiradi:** MHXS talablariga binoan hisobotlar aniq, shaffof va raqamli shaklda yuritilishi lozim. Bu esa korxonalarni moliyaviy ma’lumotlarni elektron tizimlarda qayd etishga, avtomatlashtirilgan buxgalteriya dasturlaridan foydalanishga undaydi. Natijada, iqtisodiyotda raqamlashtirish jarayoni tezlashadi.

- **Axborot tizimlarini standartlashtirishga yordam beradi:** MHXS yagona metodologiyaga asoslangani sababli, barcha tashkilotlar o‘xshash moliyaviy tuzilma va hisobot shakllarini qo‘llaydi. Bu esa raqamli axborot tizimlarini yagona standart asosida ishlab chiqish va integratsiya qilish imkonini beradi.

Moliyaviy axborotning raqamli shaklga o'tishini ta'minlaydi
Axborot tizimlarini standartlashtirishga yordam beradi, axborotlarni shaffofligi va taqqoslanishini ta'minlaydi
Investorlar va regulyatorlar uchun raqamli ochiqlikni oshiradi
Raqamli iqtisodiyotning shakllanishiga asos bo'ladi

3-rasm: MHXSning milliy iqtisodiyotga ta’siri

- **Investorlar va regulyatorlar uchun raqamli ochiqlikni oshiradi:** MHXS asosidagi hisobotlar xalqaro talablarga javob beruvchi raqamli platformalarda e’lon qilinadi. Bu shaffoflikni ta’minlab, investitsiyalar uchun ishonchli raqamli muhit yaratadi. Shunga qo‘shimcha, MHXS asosida tuzilgan raqamli hisobotlar orqali davlat organlari, soliq idoralari va investorlar moliyaviy ma’lumotlarga tezkor kirish imkoniga ega bo‘ladi. Bu esa moliyaviy monitoring va nazorat tizimlarining samarali ishlashiga xizmat qiladi.

- **Raqamli iqtisodiyot infratuzilmasini rivojlantirishga turtki bo‘ladi:** MHXSni joriy qilish zarurati tashkilotlarni zamonaviy axborot texnologiyalariga, xususan ERP, CRM va moliyaviy boshqaruv tizimlariga o‘tishga undaydi. Bu esa umumiy olganda raqamli iqtisodiy infratuzilmani rivojlantiradi.

MHXSni joriy etish bo‘yicha jahon tajribasiga nazar solsak, ko‘rishimiz mumkinki, uni birinchi bo‘lib Buyuk Britaniya, Avstraliya, Kanada va Niderlandiya singari rivojlangan mamlakatlar qo‘llay boshlagan (OECD, 2021). 2005-yildan esa Yevropa Ittifoqining barcha davlatlari ushbu standartlarga asoslangan moliyaviy hisobotni majburiy tarzda joriy etdi (European Commission, 2005). Keyinchalik

Yaponiya, Janubiy Koreya, Braziliya va Rossiya ham MHXSga bosqichma-bosqich o‘tgan (OECD, 2021).

Markaziy Osiyo davlatlarida MHXSni joriy etish jarayoni 2000-yillarning boshlarida boshlangan. Qozog‘iston 2003-yildan, Qirg‘iziston 2006-yildan, O‘zbekiston esa 2010-yillardan boshlab korxonalarda MHXSga mos buxgalteriya hisobi tizimini joriy etish yo‘lini tanladi (World Bank, 2018). Mintaqaviy xususiyat sifatida – milliy hisob standartlarini MHXS bilan bosqichma-bosqich uyg‘unlashtirish, kadrlar tayyorlash, hamda hisobotlarning shaffofligi va xalqaro solishtiriluvchanligini ta’minlashga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda.

Moliyaviy hisobotlarni standartlashtirish g‘oyalari XX asrning o‘rtalarida, xalqaro kapital bozorlarining kengayishi bilan bog‘liq tarzda shakllana boshladi. 1950-1960-yillarda AQSh, Buyuk Britaniya va G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida buxgalteriya amaliyotlaridagi tafovutlar xalqaro investitsiyalar uchun muhim to‘siq sifatida qarala boshlandi (Zeff, 1972). Shu davrdan boshlab moliyaviy hisobotlarni yagona tamoyillar asosida tartibga solish zarurati ilmiy doiralarda keng muhokama qilina boshlandi.

Umuman olganda MHXSga oid tadqiqotlarni quyidagicha davrlashtirib o‘rganish mumkindir:

2-jadval

Moliyaviy hisobotlarni standartlashtirish tadqiqotlarining davriy evolyutsiyasi

Davr	Asosiy yo‘nalishlar va ilmiy xususiyatlar	Manbalar
1. Boshlang‘ich bosqich (1950–1970-yillar)	Moliyaviy hisobotlarni standartlashtirish g‘oyalari ilk bor xalqaro kapital bozorlarining kengayishi bilan paydo bo‘ldi. Bu davrda ilmiy tadqiqotlar milliy buxgalteriya amaliyotlaridagi tafovutlarni bartaraf etish, GAAP tamoyillarini shakllantirish va investorlar uchun taqqoslanadigan ma’lumot yaratishga qaratildi.	Zeff (1972, 1978); Ball & Brown (1968)
2. Institutsional bosqich (1970–1990-yillar)	Xalqaro buxgalteriya standartlarini muvofiqlashtirish zarurati paydo bo‘ldi. 1973 yilda Xalqaro Buxgalteriya Standartlari Qo‘mitasi (IASC) tashkil etildi. Tadqiqotlar mamlakatlar o‘rtasidagi farqlarni madaniy, huquqiy va iqtisodiy omillar bilan izohlash, shuningdek qiyosiy xalqaro buxgalteriya fanini shakllantirishga yo‘naltirildi.	Nobes (1979), Gray (1980), Choi & Meek (1992), Nobes & Parker (1995)
3. Integratsion bosqich (1990–2010-yillar)	MHXS konsepsiyasi xalqaro miqyosda amalda qo‘llanila boshladi. Ilmiy e’tibor moliyaviy hisobotlarning sifatiga, shaffoflikka va investor qarorlariga ta’sirini empirik o‘rganishga qaratildi. Tadqiqotlarda MHXS qabul qilingan mamlakatlarda hisobot sifati, daromadlarni boshqarish va kapital bozorlaridagi o‘zgarishlar tahlil qilindi.	Barth, Landsman & Lang (2008); Daske et al. (2008); Soderstrom & Sun (2007)
4. Institutsional-madaniy bosqich (2010–2020-yillar)	MHXSni joriy etish natijalarini huquqiy, madaniy va institutsional omillar bilan bog‘lab o‘rganish kengaydi. Tadqiqotlar standartlarning o‘zi emas, balki ularni amalga oshirish muhitining hal qiluvchi ahamiyatini ta’kidladi.	Christensen, Hail & Leuz (2013); Prather-Kinsey (2022); Lam (2023)
5. Mintaqaviy rivojlanish bosqichi (2020–)	MDH va Markaziy Osiyo mamlakatlarida MHXSga o‘tish bo‘yicha tadqiqotlar faollashdi. Asosiy e’tibor normativ-huquqiy, tarjima, ta’limiy va auditorlik omillarni	Visotskaya & Senyigit (2021); Malofeyeva et al.

yillardan hozirgacha)	uyg'unlashtirishga qaratilgan. Tadqiqotlar O'zbekiston tajribasida MHXS joriy etishning bosqichma-bosqich modeli, inson kapitali va ilmiy bazani modernizatsiya qilish zaruratini asoslaydi.	(2025); Bradbury & Kim (2023); Tashnazarov (2018, 2023); Urazov (2023);
-----------------------	--	---

Manba: Ma'lumotlar asosida muallif tomonidan shakllantirildi

Birinchi nazariy yondashuvlar Stephen Zeff, Henry Hatfield, David Solomons, Ray Ball va Philip Brown kabi olimlarning asarlarida o'z ifodasini topgan. Ular buxgalteriya standartlarining iqtisodiy axborot sifatiga, investor qarorlariga va bozor samaradorligiga ta'sirini empirik tahlil qilganlar (Ball & Brown, 1968; Zeff, 1978).

1970–1980-yillarda standartlashtirish masalasi xalqaro miqyosga ko'tarildi. Bu davrda Nobes (1979) va Gray (1980) kabi olimlar mamlakatlar o'rtasidagi buxgalteriya amaliyotlari farqlarini madaniy, huquqiy va iqtisodiy omillar bilan izohlashga urindilar. Aynan shu davrda qiyosiy xalqaro buxgalteriya yo'nalishi mustaqil ilmiy soha sifatida shakllandi.

1980–1990-yillar davomida ilmiy tadqiqotlar Xalqaro buxgalteriya standartlarini (IAS) amaliyotga tatbiq etishning nazariy asoslarini shakllantirishga qaratildi. Choi va Meek (1992), Nobes va Parker (1995) singari tadqiqotchilar turli mamlakatlarda hisob standartlarining uyg'unlashtirilishi jarayonini iqtisodiy globallashtirish kontekstida o'rgandilar.

So'nggi yillarda esa ilmiy e'tibor MHXSning (IFRS) iqtisodiy shaffoflikka, investitsion jozibadorlikka va kapital bozorlarining barqarorligiga ta'sirini baholashga qaratilgan va MHXSni qabul qilgan mamlakatlarda moliyaviy hisobotlarning sifat darajasi va solishtiriluvchanligi oshganini empirik tadqiq etadi.

Barth, Landsman va Lang (2008) MHXSni qabul qilgan kompaniyalarda buxgalteriya hisobot sifatining oshishini (daromadlarni manipulyatsiya qilishning kamayishi va tezroq zararlarni tan olish kompaniyalar moliyaviy ahvolini yanada shaffof, halol va tezkor aks ettirishga xizmat qilishini) ko'rsatdi. Daske, Hail, Leuz va Verdi (2008) esa 26 mamlakatda MHXSGa majburiy o'tish bozor likvidligi oshishi va kapital qiymati pasayishi kabi ijobiy oqibatlarga olib kelishini aniqlashdi, ammo ushbu ta'sirlar ko'proq kuchli ijro intizomiga ega mamlakatlarda sezilganini ta'kidlash mumkin. Soderstrom va Sun (2007) ham standartlarning o'zi bilan birga huquqiy muhit va ijro mexanizmlarining hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ta'kidlaydi.

Christensen, Hail va Leuz (2013) tomonidan olib borilgan keng qamrovli tadqiqot ham majburiy MHXS joriy etilishining moliya bozorlaridagi ijobiy natijalari ko'p hollarda standartlarning o'zidan emas, balki moliyaviy hisobotni nazorat va ijro tizimidagi o'zgarishlardan kelib chiqishini ilmiy asoslab berdi. Bu yondashuv shuni ko'rsatadiki, standartlarni qabul qilishning o'zi yetarli emas, balki ularni sifatli amalga oshirishni ta'minlaydigan institutsional muhit ham zarur. Shuningdek, Prather-Kinsey (2022) tadqiqoti turli mamlakatlarda MHXS asosidagi moliyaviy hisobotning global taqqoslanishini oshirish jarayonida tarjima sifati,

mahalliy interpretatsiya, resurslar va mutaxassis tayyorlash masalalari muhim rol o‘ynashini ta’kidlaydi. Bundan tashqari, Lam (2023) tomonidan olib borilgan tadqiqot majburiy MHXSni qabul qilishning daromadlarni boshqarishga ta’siri mamlakatning ijtimoiy ishonch darajasi kabi institutsional omillar bilan chambarchas bog‘liqligini ochib beradi. Ushbu natija shuni ko‘rsatadiki, MHXSning moliyaviy hisobot sifatiga ijobiy ta’siri universal emas, balki ijtimoiy-madaniy va nazorat tizimlari bilan moslashgan holda namoyon bo‘ladi. Umuman olganda, moliyaviy hisobotlarni standartlashtirish sohasidagi ilmiy tadqiqotlar 1960-yillardan boshlab tizimli shaklga ega bo‘ldi va bugungi kunda xalqaro buxgalteriya nazariyasining eng muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

MDH mamlakatlaridagi iqtisodchi olimlar tomonidan olib borilgan zamonaviy tadqiqotlar MHXSni qabul qilish va amalda qo‘llash jarayonida nafaqat normativ-huquqiy asoslarning, balki institutsional, auditorlik va ta’limiy omillarning ham muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Masalan, Visotskaya va Senyigit (2021) Rossiyada MHXSni o‘qitish, tarjima qilish va amaliyotga tatbiq etish jarayonida yuzaga kelgan pedagogik va tilga oid muammolarni tahlil qilib, sifatli tarjima va darsliklarni ishlab chiqish zarurligini asoslaydi. Malofeyeva, Ulyanova va Djioeva (2025) tomonidan olib borilgan tadqiqot esa MHXSga o‘tish natijasida kompaniyalar hisobotlarida daromadlarni manipulyatsiya qilish kamayganini ko‘rsatsa-da, zararlarni o‘z vaqtida tan olish bo‘yicha sezilarli ijobiy o‘zgarish kuzatilmaganini aniqlaydi. Bu, o‘z navbatida, moliyaviy hisobot sifatini oshirish uchun nafaqat standartlarni qabul qilish, balki ularni bajarilishini qat’iy nazorat qilish mexanizmlarini kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi. Shuningdek, Bradbury va Kim (2023) Rossiyada MHXSga o‘tishning auditorlik bozoriga ta’sirini o‘rganib, dual audit (RAS va IFRS bo‘yicha parallel audit) sharoitida auditorlik sifatida sezilarli o‘zgarishlar kuzatilmaganini aniqlaydi. Ushbu natija MHXSning samarali ishlashi uchun auditorlik bozorining strukturasi va sifat nazoratini ham takomillashtirish lozimligini aniqlashtirib beradi. Umuman olganda, ushbu tadqiqotlar MHXSni muvaffaqiyatli joriy etilishi uchun ham normativ, ham institutsional, ham ta’limiy infratuzilmaning uyg‘un rivojlanishi muhimligini ilmiy asoslaydi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonlik tadqiqotchilar MHXS bo‘yicha tadqiqotlarni turli yo‘nalishlarda rivojlantirib kelmoqda va ularning ishlari asosan ushbu standartlarni joriy etishning nazariy, metodologik va amaliy jihatlarini qamrab oladi.

Tashnazarov (2018) ta’kidlashicha, xalqaro moliyaviy hisob va hisobot amaliyotining ilg‘or tajribalarini inobatga olgan holda, transformatsion ishchi balans tizimiga o‘tish zarur. Ushbu balans buxgalteriya schyotlaridagi qoldiqlarni maxsus transformatsion yozuvlar orqali moliyaviy hisobot shakllariga o‘tkazishni ta’minlaydigan muhim buxgalteriya registri sifatida qoraladi.

Sotivoldiyeva (2019) o‘z ilmiy izlanishlarida xalqaro standartlarga mos hisobot shakllarini shakllantirishning ikki asosiy yo‘lini ko‘rsatadi: birinchisi — mavjud ma’lumotlarni transformatsiya orqali moslashtirish, ikkinchisi esa — parallel hisob yuritish usulidir.

B. Tursunov (2021) o‘z tadqiqotida O‘zbekiston buxgalteriya siyosatini shakllantirish va rivojlantirishning nazariy hamda amaliy jihatlarini o‘rganadi. Tadqiqotda xorijiy mamlakatlar, xususan, xalqaro buxgalteriya standartlarini joriy etgan davlatlar tajribasi tahlil qilinib, ularning O‘zbekiston amaliyotiga mos jihatlari ajratib ko‘rsatilgan. Muallif milliy hisob tizimini MHXS talablariga muvofiqlashtirish, hisob siyosatini tanlashdagi shaffoflikni oshirish hamda buxgalterlar malakasini xalqaro darajada rivojlantirish zarurligini ta’kidlaydi. Shuningdek, u hisob siyosatini takomillashtirish uchun transformatsion hisob tizimini joriy etish, parallel hisob yuritish usulini rivojlantirish, va normativ-huquqiy bazani xalqaro standartlarga moslashtirish bo‘yicha takliflar ilgari suradi.

R. Arziboyeva (2023) bank tizimida MHXS asosida hisobot tuzish tartibini, shuningdek mavjud muammolar va ularni hal qilish yo‘llarini tahlil qilib, shaffoflik va moliyaviy boshqaruv samaradorligiga ta’sirini o‘rgangan bo‘lsa, M.Usarov, X.Po‘latov (2024) xalqaro buxgalteriya hisobi tushunchalarini, uning iqtisodiy integratsiya jarayonidagi ahamiyatini, shuningdek MHXS ga o‘tishda yuzaga kelayotgan muammolarni ilmiy asosda yoritgan.

N. Xasanova (2025) esa O‘zbekistonning moliyaviy hisobotlarini xalqaro standartlarga yaqinlashtirish (konvergensiya) bo‘yicha metodologik muammolar, xususan daromadni tan olish, aktiv baholash va shaffoflikka oid masalalarni chuqur tahlil qilib, ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar bergan.

Professor S.N. Tashnazarov (2023) MHXSni joriy etish nafaqat normativ-huquqiy bazani takomillashtirishni, balki inson kapitalini chuqur tayyorlashni talab etishni ta’kidlab, mavjud muammolar orasida yetarli malakali mutaxassislar yetishmasligi, o‘quv dasturlarining global standartlarga to‘liq mos emasligi, ilmiy bazaning modernizatsiyaga muhtojligi keltirib o‘tadi. MHXSni yanada keng joriy qilishda quyidagilarga alohida e’tibor qaratish lozimligini ta’kidlaydi:

- Kadrlar tayyorlash – oliy ta’lim tizimini xalqaro buxgalteriya standartlari bo‘yicha chuqurlashtirilgan dasturlar asosida qayta tashkil etish, o‘quv rejalari va akkreditatsiyani global talablarga moslashtirish.
- Ilmiy-tadqiqot faoliyati – fundamental va amaliy tadqiqotlarni uyg‘unlashtirish orqali xalqaro moliyaviy hisobot tizimlari bo‘yicha milliy ilmiy bazani kuchaytirish.
- Amaliyotga tatbiq – biznes yuritishda MHXS asosida ishlaydigan yuqori malakali mutaxassislarni yetishtirish orqali buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot sifatini oshirish.

Professor K.B.Urazov (2023) MHXSni ilk bor qo‘llash bosqichlari, ularda hal qilinishi lozim bo‘lgan tashkiliy va metodologik masalalarga bag‘ishlangan tadqiqotida mamlakatimizda mazkur standartlarni joriy qilishni yanada takomillashtirishning 4ta bosqichini taqdim etadi (1:MHXSlarga o‘tish va ularni ilk bor qo‘llashning tashkiliy bosqichi; 2: MHXSlarga o‘tish va ularni ilk bor qo‘llash yo‘l xaritasi va moliyaviy byudjetini ishlab chiqish va tasdiqlash bosqichi; 3:MHXSlarga o‘tish va ularni ilk bor qo‘llash yo‘l xaritasida belgilangan ishlarni

bajarish bosqichi; 4:MHXSlar ilk bor qo’llanilganligi va ularga to’liq o’tilganlikni e’tirof etish bosqichi) va asoslab beradi.

Yuqoridagi tadqiqotlarni tahlil etish orqali umumlashtirib aytish mumkinki, MHXSni joriy etish nafaqat normativ-huquqiy asosni, balki til va metodika aniqligi, amaliyotda qo’llashga tayyorgarlik, moliyaviy institutlarning kompetensiyasi hamda bank va korxonalarda sifat nazoratining mustahkamligini talab qiladi. Demak, O‘zbekistonda MHXSning samarali tatbiqi uchun ushbu omillarni chuqur va tizimli o‘rganish, bosqichma-bosqich joriy qilish hamda ilmiy asoslangan yondashuvni kuchaytirish zarurdir.

XULOSA

Xalqaro moliyaviy hisobot standartlarining shakllanishi zamonaviy global iqtisodiyotning talablaridan kelib chiqqan holda vujudga kelgan bo‘lib, uning ilmiy asoslari axborotning shaffofligi, taqqoslanishi va ishonchligi tamoyillariga tayanadi. MHXS nafaqat hisob yuritish qoidalarini unifikatsiya qiladi, balki iqtisodiy jarayonlarni haqqoniy ifodalovchi konseptual yondashuvni ham shakllantiradi. Bugungi kunda global kapital bozorlarining kengayishi, transmilliy korporatsiyalar ulushining ortishi va xalqaro investitsiya oqimlarining kuchayishi MHXSning ahamiyatini yanada oshirmoqda. Yagona standartlar tizimi investorlar uchun ishonchli axborot maydonini yaratadi, bu esa iqtisodiy raqobatbardoshlik, biznes muhiti sifati va moliyaviy barqarorlikni ta’minlaydi. Konseptual asosda belgilangan sifat xususiyatlari – relevantlik, haqqoniy aks ettirish, taqqoslanish va tushunarliklik – moliyaviy hisobning nazariy va amaliy uyg‘unligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Shu bilan birga, MHXSning joriy etilishi iqtisodiyotning institutsional rivojlanishiga, korporativ boshqaruv sifatining oshishiga, bozor intizomi mustahkamlanishiga ham xizmat qiladi. Bu jarayon orqali kompaniyalar moliyaviy ochiqlik tamoyillariga moslashadi, investorlar esa risklarni aniqroq baholay oladi.

Xulosa qilib aytganda, moliyaviy hisobotlarni xalqaro darajada standartlashtirish – zamonaviy iqtisodiy tizimning ajralmas qismi bo‘lib, u global iqtisodiyot integratsiyasining ilmiy-nazariy asoslarini mustahkamlaydi va moliyaviy axborotlar sifatining oshishiga, kapital bozorlarining rivojlanishiga hamda xo‘jalik yurituvchi subyektlarning shaffof faoliyat yuritishiga keng yo‘l ochadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Arziboyeva, R. (2023) ‘Banklarda xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) asosida hisobot tuzish tartibi’, *Yashil Iqtisodiyot va Taraqqiyot Journal*. Available at: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz> (Accessed: 12 September 2025).
2. Ball, R. and Brown, P. (1968) ‘An empirical evaluation of accounting income numbers’, *Journal of Accounting Research*, 6(2), pp. 159–178.

3. Barth, M.E., Landsman, W.R. and Lang, M.H. (2008) ‘International Accounting Standards and accounting quality’, *Journal of Accounting Research*, 46(3), pp. 467–498. Available at: <https://doi.org/10.17615/8ey7-9583>.
4. Bradbury, M.E. and Kim, O. (2023) ‘The impact of the IFRS adoption reform on audit market concentration, auditor choice and audit quality’, *Journal of Applied Accounting Research* (ahead-of-print).
5. Choi, F.D.S. and Meek, G.K. (1992) *International Accounting*. Englewood Cliffs: Prentice Hall.
6. Christensen, H.B., Hail, L. and Leuz, C. (2013) ‘Mandatory IFRS reporting and changes in enforcement’, *Journal of Accounting and Economics*, 56(2–3), pp. 147–177.
7. Daske, H., Hail, L., Leuz, C. and Verdi, R. (2008) ‘Mandatory IFRS reporting around the world: Early evidence on the economic consequences’, *Journal of Accounting Research*, 46(5), pp. 1085–1142.
8. European Commission (2005) *Regulation (EC) No 1606/2002 of the European Parliament and of the Council on the application of international accounting standards*. Brussels.
9. Gray, S.J. (1980) ‘The Impact of Culture on the Development of Accounting Systems Internationally’, *Abacus*, 16(1), pp. 1–15.
10. Jenice Prather-Kinsey, De Luca, F. and Phan, H.-T.-P. (2022) ‘Improving the global comparability of IFRS-based financial reporting through global enforcement: a proposed organizational dynamic’, *International Journal of Disclosure and Governance*, 19(3), pp. 330–351.
11. Khasanova, N. (2025) ‘Improvement of accounting and reporting of financial results based on international standards’, *International Journal of Social Science & Interdisciplinary Research*, 14(04), pp. 109–116.
12. Lam, K.C.K., Sami, H., Yao, J. and Yao, Y. (2023) ‘Mandatory IFRS adoption and earnings management: The role of culture’, *Journal of International Accounting, Auditing and Taxation*, 50(C).
13. Malofeyeva, T., Ulyanova, N. and Dzhioeva, A. (2025) ‘Effect of IFRS Adoption on Accounting Quality and Reporting: Evidence From Russia’, *Journal of Corporate Finance Research*, pp. 96–109.
14. Nobes, C. and Parker, R. (1995) *Comparative International Accounting*. London: Prentice Hall.
15. Nobes, C. and Parker, R. (1995) *Comparative International Accounting*. London: Prentice Hall.
16. OECD (2021) *Corporate Reporting and Transparency in Emerging Markets*. Paris: Organisation for Economic Co-operation and Development.
17. Soderstrom, N.S. and Sun, K.J. (2007) ‘IFRS adoption and accounting quality: A review’, *European Accounting Review*, 16(4), pp. 675–702.
18. Sotivoldiyeva, D.A. (2019) *Buxgalteriy hisob*. Toshkent: TDIU, Iqtisodiyot.

19. Tashnazarov, S.N. (2018) *Moliyaviy hisobotning nazariy va metodologik asoslarini takomillashtirish (MHXS va ilg‘or xorijiy tajribalar asosida)*. Monografiya.
20. Tashnazarov, S.N. (2023) ‘Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tishdagi tajribalar va jadallashtirish omillari’, in *Buxgalteriya hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida tashkil etish masalalari*. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari (I qism). Samarqand: SamISI, pp. 8–17.
21. Usarov, M. and Po‘latov, X.O. (2024) ‘Korxona buxgalteriya hisobi’, *Tadqiqotlar Jahon Ilmiy-Metodik Jurnali*, 52(6).
22. Vysotskaya, A.V. and Senyigit, Y.B. (2021) ‘Practical Issues in Education and Adoption of IFRS: Evidence from Russia’, *Eurasian Journal of Business and Economics*, 14(28), pp. 1–16.
23. World Bank (2018) *Implementation of IFRS in Transition Economies: Experience from Central Asia*. Washington, D.C.: The World Bank Group.
24. Zeff, S.A. (1972) *Forging Accounting Principles in Five Countries: A History and an Analysis of Trends*. Champaign: Stipes Publishing.
25. Zeff, S.A. (1978) ‘The Rise of “Economic Consequences”’, *Journal of Accountancy*, 146(6), pp. 56–63.
26. <https://www.icaew.com/technical/corporate-reporting/ifrs/ifrs-accounting-standards-tracker?utm>
27. <https://www.ifrs.org> IFRS Foundation va IASB rasmiy sayti
28. <https://www.ifrs.org/about-us/who-we-are/>